




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi.

2020-yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 349,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 143,1 mln. AQSh dollariga yoki 9,6 % ga kamaydi.


Mamlakatimizda ko'pchilik faoliyat sohalari to'xtab qolganligi inobatga olinib, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda. Xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.






TSAda eksport hajmi 448,5 mln. AQSh dollariga (69,7 % ni tashkil etdi) va import hajmi 901,2 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 106,1 %) yetdi. Hisobot davrida 452,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2019-yil yanvar-aprel nisbatan, % da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Rossiya Federatsiyasi	292,3	61,9	230,4	27,6
Qozog'iston	255,6	37,7	217,9	24,2
Turkiya	228,9	199,6	29,3	21,6
Xitoy Xalq Respublikasi	182,8	28,5	154,3	17,3
Koreya Respublikasi	67,3	3,7	63,6	6,4
Germaniya	37,1	0,9	36,2	3,5
Tojikiston	29,0	13,7	15,3	2,7
B.A.A.	28,0	27,5	0,5	2,7
Afg'oniston	24,9	24,9	0,0	2,4
Braziliya	23,2	0,0	23,2	2,2
Ukraina	15,2	9,3	5,8	1,4
Hindiston	12,6	0,6	12,1	1,2
Qirg'iziston	11,9	5,1	6,7	1,1
Italiya	11,9	1,6	10,3	1,1
Litva	10,5	0,1	10,4	1,0
Ozarbayjon	10,2	4,3	6,0	1,0
Polsha	9,1	3,8	5,4	0,9
Belarus	9,0	3,9	5,1	0,8
Niderlandiya	8,8	6,2	2,6	0,8
Singapur	7,6	4,6	3,0	0,7



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 46,5 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar-aprel oylarida 57,5 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 53,5 % ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,9 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2020-yil yanvar-aprel, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2020 yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Afg'oniston va Ukraina bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya va Birlashgan Arab Amirliklari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

Boshqa davlatlardan TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-aprel)

Xalqaro integratsiyaning kamayishi hamda davlatlar o'rtasidagi chegaralarda taqiq davom etayotganligi sababli mamlakat eksportining barqaror o'sishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib, eksport salohiyatining pasayishiga olib kelmoqda. Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko'mak berilmoqda. 2020-yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan 448,5 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan 69,7 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 % ni tashkil etib, bular asosan qora va rangli metallar (57,9 %), boshqa turdagi tovarlar (22,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (11,1 %), paxta tolasi (2,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,4 %) shuningdek, mashina va uskunalar (2,0 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-aprel)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	448,5	139,0	309,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	12,5	0,0	12,4	2,8	0,03	4,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	49,6	29,4	20,3	11,1	21,1	6,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	15,4	10,9	4,5	3,4	7,9	1,5
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	259,5	24,9	234,6	57,9	17,9	75,8
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	8,8	4,3	4,6	2,0	3,1	1,5
Xizmatlar	2,4	0,5	1,9	0,5	0,4	0,6
Boshqalar	100,2	69,0	31,2	22,3	49,6	10,1






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O'SISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-aprel)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	69,7	73,2	68,3
shujumladan:			
Paxta tolasi	12,5	39,9	12,5
Oziq-ovqat mahsulotlari	128,3	117,2	148,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	155,7	163,2	140,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora va rangli metallar va buyumlar	68,3	31,0	78,3
Mashina va asbob-uskunalar	60,3	81,2	48,7
Xizmatlar	75,1	68,7	77,0
Boshqalar	103,1	96,0	123,0






VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-aprel)

Asosiy hamkor davlatlar

Ulushi 87,8 %

Boshqa hamkor davlatlar

Ulushi 12,2 %






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 31,5 mln. dollar qiymat ega 72,9 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2019-yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 20,8 % va naturada – 2,2 barobarga o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 24,3 mln. AQSh dollariga teng 65,5 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 27,5 % o'sgan), shuningdek 4,0 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda 36,2 % ga kamaygan).

2020-yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari

				
Meva va rezavorlar	Uzumlar	Qovun va tarvuzlar	Yeryong'og'lar	Sabzavotlar
4,1 ming tonna	3,2 ming tonna	0,004 ming tonna	0,2 ming tonna	65,5 ming tonna
4,0 mln. AQSH dollari	2,9 mln. AQSH dollari	0,001 mln. AQSH dollari	0,3 mln. AQSH dollari	24,3 mln. AQSH dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida meva va rezavorlar hamda sabzavotlarning eksport hajmi 28,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,9 % o'sgan.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda faoliyati yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oylari mobaynida import hajmi 901,2 mln. AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (33,9 %), boshqa turdagi tovarlar (23,4 %), qora va rangli metallar (15,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,9 %) hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (7,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA IMPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-aprel)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	901,2	488,3	413,0	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari	124,9	102,3	22,5	13,9	21,0	5,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	65,3	16,2	49,1	7,2	3,3	11,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	42,8	42,6	0,3	4,8	8,7	0,1
Qora va rangli metallar, ulardan yasalgan buyumlar	138,2	93,2	45,1	15,3	19,1	10,9
Mashina va asbob-uskunalar	306,0	58,0	247,9	33,9	11,9	60,0
Xizmatlar	12,8	1,5	11,3	1,4	0,3	2,7
Boshqalar	211,2	174,5	36,7	23,4	35,7	8,9

Importning eng katta ulushi, jumladan, boshqa turdagi tovarlar (35,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (21,0 %), shuningdek qora va rangli metallar (19,1 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (60,0 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (11,9 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2020-yil yanvar-aprel, % hisobida)

Tarkibi	2019-yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	106,1	109,9	101,9
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	76,1	98,0	37,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	91,9	64,3	106,9
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	339,4	355,4	39,6
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	97,3	79,5	180,8
Mashina va asbob-uskunalar	122,1	210,2	111,1
Xizmatlar	123,0	76,2	133,8
Boshqalar	106,4	111,7	86,7





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2020-yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Germaniya, Turkiya va Braziliya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 754,9 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 83,8 % ini tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 230-86-59